

Abdulazizxon (shayboniy)



Abdullazizxon ibn Ubaydullaxon

(1509-1550)

(1540-1550)

Buxoro xoni bo'lgan shayboniy hukmdor (1540-1550). **Ubaydullaxonning** o'g'li. Dastlab 1538-1539 yillarda Xorazm hokimi bo'lgan. 1539 yilda otasi Ubaydullaxon vafot etgach, shayboniylar sulolasi vakillari o'rtasida o'zaro nizolar avjiga chiqdi. Buning oqibatida Abdullaxon I ning qisqa hukmronligi (1539-1540)dan so'ng mamlakatda qo'shhokimiyatchilik vujudga kelib, Abdulazizxon **Buxoro xoni** (1540-1550), Ko'chkunchixonning o'g'li Abdullatifxon esa Samarqand xoni bo'lgan. Abdulazizxon otasi Ubaydullaxon vafotidan keyin Buxoro taxtiga o'tiradi, ammo Samarqand xoni uni bosh xon sifatidida tan olmaydi, natijada kelishmovchiliklar kelib chiqqan. Toshkent hokimi Navro'z Ahmadxon va Abdullatifxonlar Abdulazizga qarshi qo'shin tortadi. Abdulazizxon Balxga qochadi, biroq Jo'ybor shayxlari Toshkent, Samarqandlik hokimlari hokimlarni qo'llab-quvvatlaganlari uchun Buxoroni tashlab chiqib ketishga majbur bo'lishdi. U o'z hukmronligi davrida davlat va aholi manfaatlarini ko'zlab qator islohotlar o'tkazgan, ayrim soliqlar (tanob puli, tafovut, tavniri va b.) ni bekor qilgan. Uning davrida to's-to'polonlar ko'p bo'lganligiga qaramay mamlakat obodligi va yurt qurishga kirishib, oliy imoratlar bino etdi. Xususan u Buxoro atrofini yangi mudofaa devori bilan o'rashga kirishgan (uni Abdullaxon II qurib bitkazgan bo'lib, 20-a. boshlarigacha saqlangan). U o'z otasi Ubaydullaxonga bag'ishlab shunday imorat qurdirdiki uni tariflashga til ojjiz. Bundan tashqari u Buxoroda madrasa, Bahouddin Naqshband qabristonida xonaqohlar qurdirgan.

Abdulazizxonning ulkan bir jutubxonasi bor edi, o'sha paytda bunday kutubxona bo'lganmi, yo'qmi aytish qiyin. Uning kitobdori ham o'z zamonasida tengi yo'q naqqosh va xattot edi."Bu

kutubxona” – tarixiy manbalarda yozilishicha Xurosonga yurishlaridan birida Abdulazizxon qo'lida Husayn Boyqaro kitobxonasi tushgan. Maskur kutubxona asosida tashkil etilgan.

Abdulazizxon ilm va she'riyat homiysi, o'ta taqvodor inson bo'lib, tasavvuf olimi Shayx Jalolning mudiri edi. U benazir husniyat sohibi bo'lgan, **“Aziziy”** taxallusi bilan g'azallar bitgan.

Abdulazizxon 41 yoshida 1550 yil 16-mayda vafot etadi. Qabri otasining yonida Ubaydullaxon sipposida joylashgan.

2023-10-31 23:05:32